

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 37.091.3:159.9

KITOBXONLIKNI YOSHLAR MA'NAVİYATGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ЧТЕНИЯ КНИГ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

THE IMPACT OF READING ON THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Xusanov Jamoliddin

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlarni g'oyaviy va ma'naviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi holati, bu sohadagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha fikr-mulohazalar tahlil qilingan..

Аннотация

В статье рассматривается современное состояние культуры чтения, имеющей важнейшее значение для мировоззренческого и идеологического развития молодежи нашего общества, анализируются некоторые связанные с этим проблемы и предлагаются пути их решения.

Abstract

This article examines the current state of reading culture, which plays a crucial role in the ideological and moral development of youth in our society, analyzes some related problems, and offers suggestions for their resolution.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik.

Ключевые слова: культура чтения, духовная потребность, семейное чтение, анализ художественного произведения, культурный дискурс, композиция текста, грамотность.

Key words: reading culture, spirituality, family reading, analysis of literary works, cultural speech, text composition, literacy.

KIRISH

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsion vositalar xizmatidan foydalanish sur'ati keskin ortayotgan, fuqarolarning talab, ehtiyoj va maqsadlarini qondiruvchi moddiy manbalar yetarlicha ishlab chiqarilayotgan davr – innovatsion texnologiyalar asri bo'lib tarixga kirmoqda. Insoniyatning farovon, to'kin-sochin hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish borasidagi ishlar ko'lamini sifat darajaga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2020 yildagi "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" [1] 781-son qaroriga ko'ra "2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash"ga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Zero, O'zbekiston, yurtboshimiz e'tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida "...insonga katta sharaf ko'rsatilgan - unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak ahloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor...", - deya ta'kidlangan [4]. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko'makchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo'jizadir. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lgan eng yaqin do'stdir.

ILMIY AXBOROT

Kitob haqida uning insonni kamolotga yetishidagi o'zni haqida qimmatli fikrlar, tashbehlar nihoyatda ko'pdir.

M.Abdirahimova ilmiy maqolasida [2], sharq mutafakkirlari qarashlarida, g'oyalarida, asarlarida inson kamoloti, ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik, ta'limtarbiya kabi masalalarda qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan. Albatta, ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklashini, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida shakllanishidagi o'zni nihoyatda beqiyosdir.

S.H. G'uzorova ilmiy maqolasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mohiyati haqida ma'lumot berilgan[5].

Shu bilan birga, ba'zi adabiyotlarda "ma'naviyatning inson hayotidagi o'zni, jamiyat rivojidadagi salmoqli hissi, yosh avlod tarbiyasidagi muhim roli haqida so'z boradi. Bundan tashqari ma'naviyatni oshirishning samarali vositasi bo'lgan kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha jamiyatimizdagi qator islohotlar, tadbirlar, Prezident qaror va farmonlari" haqida ma'lumot beriladi [7].

MUHOKAMA VA NATIJA

Kitobga oshnolik kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida inson kitob bilan do'st bo'lib, o'zini qiziqtirgan savollarga javob topib kelgan. Kitob kishining qayg'uli kunlarida, yolg'iz qolgan damlarida ham, baxtli va masrur onlarida, ya'ni har bir qadamida, kundalik turmushida ham maslahatchi, sadoqatli hamroh, bebaho boylik va eng yaqin do'st hisoblanadi.

Kitoblar haqida so'z borar ekan, bugungi kunda yoshlarning deyarli kitob o'qimay qo'yganligi afsuslanarli. Kitob bilan dillashishdan yiroq insonlarning ma'naviy olami sayoz, nutqida tarqoqliklar ildiz otgan, ko'ngildagi kechinmalarda tuyg'usi yo'q, qisqasi kitob o'qish ular uchun majburiy bir da'vat bo'lib qolmoqda. Nima qilsak, bolalar bu zaruratdan qiziqishlar tomon o'zgaradi? Har bir jumboqning kaliti, har ilmning xazinasi, tarbiyalovchi kuch ham kitob ekanligini anglab yetadi.

Abdulla Qodiriyning birgina "O'tkan kunlar" romani yoshlarimizning ma'naviy yetuk, barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishishlarida juda katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega [8]. Shuning uchun bu asarni qayta-qayta o'qish, kerak bo'lsa, butun-butun boblarini yod olish yoshlarimizning ongini yuksaltiradi, ma'naviy olamini boyitadi, milliy g'ururni yuksaltiradi. Asar boshdan-oxir milliy ruh bilan sug'orilgan. U XIX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek xalqi hayotining qomusidir. Asarni mutolaa qilgan kishi undan behad ulug' ma'naviy ozuqa oladi. Undagi qahramonlar bilan birga yashaydi, birga quvonadi, birga iztirob chekadi, aqliy teranlik, nozik fasohat, yuksak odob-axloq namunasi har qanday ko'ngilni kirlardan tozalaydi, nekinlik, yorug' his-tuyg'ular ruhiy quvvat bag'ishlaydi.

Kitobxonlik madaniyati haqida so'z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o'qish qoidalari va turlari haqida ma'lumotlar, tushunchalar berish lozim bo'ladi. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 9576 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud bo'lib, shundan 12 tasi viloyat, 199 tasi tuman (shahar) va 928 tasi maktab axborot-resurs markazlari hamda 8648 tasi maktab kutubxonalari hisoblanadi. Ularga jami 4 047 738 nafar o'quvchilar a'zo bo'lgan [6].

Axborot-resurs markazlari, kutubxonalarda bugungi kunda jami 23 mln. dan ortiq kitob fondi mavjud. Ularning kitob fondini boyitish maqsadida har yili o'quvchilarga sinfdan tashqari mutolaa uchun badiiy adabiyotlar xarid qilinadi. Xususan, "yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oiliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak" [10].

Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi.

Kam o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p:

kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi;
milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi;
ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi;
hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi;
savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi;
madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'g'rilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlarlar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Buning isboti sifatida aytishimiz mumkinki, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularning estetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'quvchi bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdagi badiiy asarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o'quvchilari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

O'qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo'lib, u ikki jihatga ega, ya'ni, texnik jihat – o'qish va tez o'qish ko'nikmalarini egallash va ijodiy jihat – matndan zarur ma'lumotni tanlab olish.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishga ko'maklashadi. "NOP World" xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o'tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1, Shvesiya — 6,9, Fransiya — 6,9 va Vengriya — 6,8 soat bilan yuqori o'rinlarni egalladi [9].

Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada ommalashib borayotgani muloqotning audio, video vositalari, radio, televidenie, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o'rin egallashi bilan odamlarda kitob o'qishga qiziqish yo'qoladi, degan fikr xato ekanligini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, so'nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiya 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda [3]. Bizning mamlakatimizda esa "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdamkitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblarini ko'p ming nusxada nashr etmoqda.

Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o'quvchida badiiy kitob o'qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Demak, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o'qishni, tahlil qilishni muntazam o'rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko'paytirish, mashg'ulotlarni guruhlariga bo'lib o'tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkoni ortadi, darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o'quvchilar mutaxassis o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatda bo'lib, ulardan tajriba o'rganadilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatleri to'la namoyon bo'ladi.

XULOSA

Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning o'rni beqiyos. Kitobni sevadigan, doim kitob mutolaasi bilan mashg'ul yoshlarda to'g'rig'oylik, halimlik, mulohazakorlik, adolatpeshalik, illatlarga murosasizlik, mantiqiy fikrlay olish fazilatleri ko'rinib turadi. Shuning uchun yoshlarni ana shu fazilatleri tarbiyalaydigan kitoblarni ko'proq o'qishga rag'batlantirib borish, mutolaa jarayonining talablariga

ILMIY AXBOROT

rioya etishga o'rgatib borish lozim. Negaki, zarur ma'naviy ozuqa olish uchun yaxshi, tarbiyada foydasi tegadigan kitoblarni tanlay bilish ancha-muncha mas'uliyat talab qiladi. Yovuzlik, zulm-zo'ravonlik, axloqsizlikni targ'ib etadigan kitoblar ham bor. Missionerlik, ommaviy madaniyatni targ'ib etadigan kitoblar ta'siridan yoshlarimizni asrash juda muhim vazifa. Bu vazifani bajarish uchun kitob targ'ibotini to'g'ri yo'lga qo'yish, yoshlar tarbiyasida kitobning ahamiyatini oshirib borishimiz zarur.

Shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2020 yildagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" 781-sonli Qarori
2. Abdirahimova M. Yoshlar o'rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish va uning o'ziga xos xususiyatlari // ORIENSS. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-o-rtasida-kitobxonlik-va-mutolaa-madaniyatini-yuksaltirish-va-uning-o-ziga-xos-xususiyatlari> (мурожаат вақти: 12.06.2025).
3. Abdullayeva K. A Kitob mutolaa qiluvchi - millatimiz, kitob mutolaa qiluvchi - onamiz, kitob mutolaa qiluvchi-farzandimiz // Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. 30-33-b.
4. Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018.
5. G'uzorova S.H. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mohiyati // International scientific-practical conference "preschool education: quality and efficiency, development perspectives". 2024. 698 b.
6. O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak // "Xalq so'zi", 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
7. Xayriddinova A.F., Xolmo'minov M.Z. Ma'naviyat va kitobxonlik inson qalbini egallash vositasi // Oriental Art and Culture. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-naviyat-va-kitobxonlik-inson-qalbini-egallash-vositasi> (дата обращения: 18.06.2025)
8. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. www.kitob.uz.
10. www.ma'naviyat.uz.